

BADIIY ASARLARDA FITONIMLARNING IFODALANISHI

University of business and Science Aniq va tabiiy fanlar kafedrası
Lotin tili va tibbiy terminologiasi fani o'qituvchisi
JUMASHOVA SAYYORA SHONAZAROVNA

Annotatsiya

Ushbu maqola onomastika bo'limining tarkibiy qismi bo'lgan fitonimlarning hozirgi kundagi ishlatilishi haqida bayon etilgan. O'zbek tilida qo'llanilayotgan fitonimlar tadqiqi grammatik, leksik, semantik jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, ularning mazmunini aniqlashda o'simliklar nomlarini chuqur tahlil qilish yordam beradi. Shuningdek maqolada fitonimlarning turli tadqiqodlarda o'rganilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *fitonimlar, dorivor o'simliklar, til, tarix, onomatika.*

Abstract

This article describes the modern use of phytonyms, which are part of onomastics. The study of phytonyms used in the Uzbek language is important from grammatical, lexical and semantic points of view, and an in-depth analysis of plant names helps to determine their meaning. The article also analyzes the study of phytonyms in various studies.

Keywords: *phytonyms, medicinal plants, language, history, onomastics.*

Аннотация

В данной статье описывается современное использование фитонимов, которые являются частью ономастики. Изучение фитонимов, используемых в узбекском языке, важно с грамматической, лексической и семантической точек зрения, а углубленный анализ названий растений помогает определить их значение. В статье также анализируется изучение фитонимов в различных исследованиях.

Ключевые слова: *фитонимы, лекарственные растения, язык, история, ономастика.*

Fitonimika onomastikaning bir bo'limi sifatida o'zining o'rganish obykti va predmetiga ega. O'zbek tilida qo'llanilayotgan fitonimlar tadqiqi grammatik, leksik, semantik jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, ularning mazmunini aniqlashda o'simliklar nomlarini chuqur tahlil qilish yordam beradi. Masalan "Boburnoma" asarida tilga olingan o'simliklar, meva nomlari hozirgi davr o'simlik nomlaridan talaffuzda ham, nomlanish jihatidan ham boshqacha ko'rinishga ega. Biz hozirda oldingi nomlar bilan

atalgan ayrim fitonimlarni hozirda boshqa nomlar bilan ataymiz. O‘simlik nomlarini ifodalovchi lug‘aviy birliklarga nisbatan lingvistik tadqiqotlarda o‘simlik nomi, o‘simliklarni ifodalovchi leksemalar, o‘simlik otlari, o‘simliklarni atovchi otlar, botanik terminlar, fitonim, fitonimik leksika, floristik leksika kabi terminlari qo‘llangani kuzatiladi. Bu birliklardan ayrimlarining ma‘no mundariyasi, o‘zaro G.Ne‘matovanning dissertatsiyada tahlil qilingan. Masalan, O‘zbekistonda o‘rikning Oqo‘rik, Shalax, Ruhi Juvanon, Mohtobi Ahroriy, Subhoni, Gulungi, Ko‘rsodiq, Xurmoi, Isfarak, Javpazak, kabi nomlari bor. Mazkur nomlar o‘rik apellyatividan farqli o‘laroq o‘rik navlarini ifodalovchi maxsus atoqli nom sifatida fitonimlardir. O‘zbek onomastikaga oid manbalarda fitonimlar keng ko‘lamni o‘rganilmagan. Lekin fitonimika o‘rganadigan ilmiy-nazariy va amaliy masalalar keng. Fitonimika fitonimlar bilan bo‘g‘liq quyidagi masalalarni:

- 1) o‘simliklarning atoqli nomlari-fitonimlarning paydo bo‘lishi va shakllanishining lisoniy, nolisoniy omillarini;
- 2) o‘simliklarning nomlanishiga doir tarixiy, xalqona an‘analarni;
- 3) fitonimik indikatorlarning lisoniy xususiyatlarini va fitonimlar tarkibidagi vazifasini;
- 4) o‘simliklarning nomlanish tamoyillarini;
- 5) fitonimlarning tarixiy va zamonaviy shakllarini hamda fitonimlardagi lisoniy o‘zgarishlarni;
- 6) fitonimlarning lug‘aviy-ma‘noviy xususiyatlarini; fitonimlarning morfemik va yasaliş modellarini;
- 7) tilning apellyativ leksikasi bilan fitonimik leksikasi munosabatlarini;
- 8) fitonimlarning boshqa bionim turlari: antroponimlar va zoonimlar, ornitonimlar bilan munosabatini va bundagi vazifaviy o‘tishlarni;
- 9) folklor, tarix botanikaga oid asarlardagi va qadimiy qo‘lyozmalardagi fitonimlarning yaratilishi bilan bo‘g‘liq ma‘lumotlarni;
- 10) fitonimlarning mahalliy lahja va shevalarga oid xususiyatlarini;
- 11) fitonimlarning etimologiyasini;
- 12) fitonimlarni tasniflash bilan bog‘liq ilmiy va amaliy masalalarni;
- 13) fitonimik xarita va lug‘atlar tuzish tamoyillarini o‘rganishi lozim.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida o‘zi yashagan davr tarixi, madaniyati, hayvonot va nabotot olami yoritilgan bir nechta asarlarni yozib qoldirgan. Bularga “Xronologiya”, “Hindiston”, “Geodeziya”, “Minerologiya”, “Mas‘ud qonuni”, “Saydana” kabi asarlari kiradi. Ayniqsa, uning umrining so‘nggi yillarida Mahmud G‘aznaviyning vorisi Ma‘dud sultonligi davrida 1048-yilda yozilgan “Kitob as-Saydana fi-t tibb” nomli asari diqqatga sazovordir. Bu asar dorivor

o'simliklar, hayvonlar va madanlar tavsifiga bag'ishlangan. "Saydana"ning qimmatli tomoni shundaki, unda dorivor o'simliklarning bir nechta tillardagi nomlari keltirilgan. Bu asarda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini bergan. Jumladan, asarda 1116 tur dorivorni tavsiflaydi. Shundan 750 turi o'simliklardan, 101 turi hayvonlardan, qolgan 255 turi minerallardandir.

Navoiy asarlari o'z mazmun-mundarijasiga ko'ra juda boy bo'lib, unda turkiy-o'zbek xalqi turmush tarzining, ruhiy va ma'naviy olamining turli sohalari o'z so'zlar mavjud: diniy-tasavvufiy, afsonaviy, harbiy terminlar, kishi ismlari, taxalluslari, inson tana a'zolari nomlari, ijtimoiy-siyosiy va huquqqa oid terminlar, uy-ro'zgor, kiyim-kechak, kasb-hunar, ta'lim-tarbiya, oziq-ovqat, ob-havoga oid leksema, jugrofiy, astronomik tushunchalar va osmon jismlari terminlari, yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar, qush nomlari, mayda jonivorlar, o'simlik, daraxtlar, kon bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, sport o'yinlari, musiqiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik terminlari Navoiy asarlarining so'z xazinasini tashkil qiladi. Fitonimlarda xalq yashab kelgan tarixiy-geografik hududga va iqlimga mos keluvchi naborot olami namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy asarlari tilidagi o'simlik olamiga oid nomlar va ulardan yasalgan so'zlar eski o'zbek adabiy tilining shu sohadagi leksik boyligini va ularning badiiy san'atdagi o'rnini ifodalab turadi.

Tildagi boshqa so'zlardan farqli o'laroq, o'simlik nomida shu o'simlikni to'la qamrab olgan tushuncha ham, uning «mevasi» tushunchasi ham, «guli» va «ildizi» tushunchasi ham ifodalanadi. Muayyan o'simlik nomining qaysi ma'noda ekanligi matn mazmunidan (kontekstdan) anglashiladi.

O'simliklar olamiga mansub bo'lgan jami 305 ta so'zga nisbatan bular foiz hisobida: umumturkiy va o'zbekcha so'zlar 11,1%ni, arabcha so'zlar 17,4%ni, fors-tojikcha so'zlar 66,9%ni va aralash tarkibli so'zlar 4,6%ni tashkil etadi. Alisher Navoiy asarlari tilidagi o'simliklar olamiga mansub so'zlarni hozirgi o'zbek tilida saqlanganlik-saqlanmaganligiga ko'ra to'rt turga bo'lish mumkin:

- a) ayni o'sha shakl va ma'noda yetib kelgan so'zlar;
- b) fonetik shakli biroz o'zgargan so'zlar;
- v) ma'nosida o'zgarish yuz bergan so'zlar;
- g) shoir tilida mavjud bo'lib, hozirgi tilda mavjud bo'lmagan so'zlar.

Xulosa qilib aytganda, fitonimlar ya'ni o'simlik nomlari turli davrlarda o'ziga xos nomlar bilan atalgan, vaqt o'tishi bilan ular hozirgi kunda aynan o'sha nomlar emas balki boshqacha nomlar bilan ifodalanmoqda. Fitonimlar inson salomatligida, tibbiyotda va hatto boshqa turli sohalarda ishlatilishi mumkin. Demak, fitonimika ham tilshunoslikning nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohalaridan biri

hisoblanadi. O'simliklarning nomlari fitonimlar, ularning majmui fitonimiya deb yuritiladi. O'zbek tili fitonimiya sohasi yana ham keng o'rganilishi zarur bo'lgan sohalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madaliyeva Y., O'zbek tilida fitonimlarning leksik-semantik va tematik xususiyatlari//“pedagogs”international research journal ISSN: 2181-4027_ SJIF: 4.995-www.pedagoglar.uz-Volume-23, Issue-1, December -202269
2. Uz.m.wikipedia.org 4. Hathe Asiet. Kognitiv va lingvokulturologik o'simlik dunyosining nominatsiyalari xususiyatlari. Muallif. Filol.fanlar.dok. Maikop. 2010 p. 6-18
3. M.Усманова Application of phytonyms in the works of alisher Navoi . European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 7 Number 12, 2019. ISSN 2056-5852. 49-52 бет
4. M.Усманова Genetic classification of phytonyms in navoi works. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal Volume: 6 Issue: 11 November 2020. India 532-535 б.